

## INKLYUZIV TA'LIM NAZARIYASIDA IJTIMOIY YONDASHUV MODELI

**Hamrayeva Dildora Ro'ziyevna**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
Maktabgacha ta'lif fakulteti tyutori.

E-mail: [munojatyuldosheva2006@gmail.com](mailto:munojatyuldosheva2006@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

Inklyuziv ta'lif vazifasi bolalarning qobiliyatlarini va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatlari ta'lif taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobjiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lif tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta'lif olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa maktabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. Ushbu maqolada aynan shu xususida so'z yuritiladi.

**Kalit so'z.** Inklyuziv ta'lif, inklyuziv ta'lif maqsadi, inklyuziv ta'lif tamoyillari, imkoniyati cheklangan bolalar, ijtimoiylashuv, maktabgacha ta'lifda inklyuziv ta'lif.

### ABSTRACT

The mission of inclusive education is to provide quality education to all children, regardless of their abilities and status. At the same time, the principle of inclusion implies that children with limited opportunities should live in a family and receive education in a normal school together with their peers in order to have a positive mental and social development. The inclusive education system means that a child in a wheelchair can study in any nearby school, if he/she has learning difficulties, he/she has special help to learn to read and write, and a child who does not attend classes ensures that appropriate support is provided to return to school. This article is about this.

**Keyword:** Inclusive education, purpose of inclusive education, principles of inclusive education, children with disabilities, socialization, inclusive education in preschool education.

## KIRISH

Mamlakatimizda ta’lim tizimiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. O’tgan davr mobaynida mamalakatimizda o’sib borayotgan avlodlarni sog‘lom fikrlaydigan va har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazish ta’lim- tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakillarini hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Inklyuziv ta’limning asosiy maqsadi jamiyatda sog‘lom shaxslararo munosabatni o‘rganishdir. Odamlar odatdagidek inson madaniyati, xilma-xilligi bilan, inson namoyon bo‘lishi va inson salomatligi bilan bog‘liq o‘zgarishlarni anglashi lozim.

## ASOSIY QISM

Inklyuziv – (inklyuziya – inglizcha [inclusion] - uyg‘unlashish ) hamkorlikdagi ta’lim, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng insonparvar va eng samarali ta’lim sifatida tan olingan. Inklyuziv ta’lim –imkoniyati cheklangan bolalarni maktablarda sog‘lom tengdoshlari bilan birga ta’lim olishi. Bolalarda ilk ijtimoiylashuv jarayonlari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshadi. Nuqsonli bolalar bog‘chaga qatnamasligi natijasida itimouiylashuv jarayonidan orqada qolardi. Hozirgi kunga kelib esa ta’lim tizimiga inklyuziv ta’lim tizimi kirib kelishi bilan nuqsonli bolalar ham sog‘lom tengdoshlari bilan birga dars jarayonlarida ishtirok etishmoqda. Inklyuziv ta’lim nuqsonli bolalarga nima beradi degan o‘rinli savol tug‘ulishi mumkin. Bular:

-o‘z imkoniyatini o‘zi kashf etish

-o‘zi harakatlanishibirgalikda, hamkorlikda ishslash imkoniyati orqali yuzaga keladi

-dunyoqarashi o‘zgaradi hayotiy tajribasi oshadi

-o‘qishga bo‘lgan ehtiyoji va qiziqishi ortadi

-o‘zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi

-ilgari sezilmagan imkoniyatlari ko‘rina boshlaydi.

Maktabgacha ta’limda inklyuziv ta’limning ahamiyati shundan iboratki imkoniyati cheklangan bolalarni yoshligidanoq sog‘lom bolalar bilan birga ta’kim tarbiya jarayonlarida ishtirok etishi hisoblanadi. Yoshlikdan ajratilgan, alohida muhitda o‘qishdan ko‘ra inklyuziv ta’limda o‘qish bolalar uchun anchayin qulay. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabga tayyorlashda ota-onalar hamkorligida ishslash asosiy rol o‘ynaydi. Ota –onalar qishloq sharoitida imkoniyati cheklangan bolalarga talab darajasida yordam ko‘rsatish imkoniyatiga ega emas. Birinchidan moddiy tomondan imkoniyat yetishmasligi , ikkinchi tomondan esa yordamga muhtoj bolalarning go‘dakligidan ularning nuqsonini aniqlash uchun pedagog va psixologning malakasi talab etilishidir. Tarbiyachilar psixologlar va o‘qituvchilarning maxsus defektologiyaga asoslangan o‘quv darsutlarida olgan bilim va malakalari ularning

maxsus guruhlardagi faoliyatlar davomida aniq tashxis qo'yish va sifatli davolashni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi yordamga muhtoj bo'lgan bolalarga samarali bilim olishlari uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratishdir.

Maktabgacha ta'limda inklyuziv ta'limni tashkil etishning tamoyillariga quyidagilar kiradi:

1. Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi
2. Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi
3. Bog'lanishning mavjud bo'lish tamoyil
4. Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili
5. Inklyuziv ta'limda kompleks yondashish tamoyili
6. Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili
7. Malakaviy tamoyillar kiradi.

Nuqsonli bolalarga faqatgina nuqsoni tarafdan emas, balki bunday bolalarga jamiyatning erkin bitta a'zosi sifatida qaralsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Uni jamiyatdan ajratish emas, balki undagi mavjud iqtidor va qobilyatlarni aniqlab ularni yuzaga chiqarishga yordam berish zarur. Imkoniyati cheklangan bolalarning ehtiyojlarini aniqlash, ularning nuqsonini bartaraf etish, korreksiya ishlarini olib borish bilan bir qatorda, bilim ko'nikmalarga ega bo'lish, kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib boorish talab etiladi.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish joizki imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiylashuvi ko'p jihatdan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilar zimmsiga tushadi. Ya'niki bolalar ilk ta'lim va tarbiyani maktabgacha ta'lim tashkilotida oladi, shu bilan birga bolada guruh bilan ishslash, jamoa bo'lib harakat qilish, ijtimoiylashish ham shu yerda hosil bo'ldi. Bu tamoyilning mohiyatida yordamga muhtoj bolalarga ilk yosh davrida erta yondashish ham yotadi. Alovida yordamga muhtoj bolalar ta'limi boshlang'ich va o'rta maxsus ta'limni olishlari bilan yakunlanmasligi kerak. Alovida yordamga muhtoj bolalarning kasb-hunar ta'limi va oliy ta'limi ham amalga oshirilishi talab etadi. Chunki inklyuziv ta'lim tizimining vazifalaridan biri alovida yordamga muhtoj bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning barcha huquqlarini ta'minlashdan iboratdir. Alovida yordamga muhtoj bolaning normal rivojlanishiga halaqit berish, nogironlikdan ham og'irroq holatlarga olib kelishi mumkin. Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili. Alovida yordamga muhtoj bolalarga nogiron deb faqatgina nuqson jihatdan yondashish emas, balki bu bolalarga har tomonlama yondashish lozim. Bu esa alovida yordamga muhtoj bolalar uchun ta'lim masalasini rejorashtirayotganda uning butun hayoti davomida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojlarni hisobga olgan holda reja tuzish talab etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Ta'limda tolerantlikka erishish kelajak o'qituvchisini inklyuziv ta'limga tayyorlashga erishish sharti sifatida. Zamonaliv matabda va jamiyat aloqadorli.
2. Ibadullayeva, S. N., Jurayeva, Z. (2021). Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda korreksion mashg'ulotlarning ahamiyati. Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari.
3. Sh.N.Ibadullayeva magistrlik dissertasiya “ Ta'lim klasteri asosida inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirishning samarali omillarini aniqlash” 2022 y.